



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 28 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Аҳмедова Гулнора Исоқовна

АҲМАД ДОНИШНИНГ ЭЛЧИЛИК ФАОЛИЯТИ 7

2. Xudoyberdiyev Bunyodbek Muhammadjonovich

TARIX FANINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING
AFZALLIKLARI 9

3. Самадова Хурмат Машарифовна

ДАВLAT ARBABI, MA'RIFATPARVAR, OLIM, ADIB, SHOIR VA XUSHNAVIS
XATTOT -ШАРИФЖОН МАХДУМ 11

4. Sabohat Baltayeva

ALISHER NAVOIY "TARIXI MULUKI AJAM" ASARINING TARIXIY JNATLARI..... 14

5. Bekzod Boymatov Xidirboyevich

TARIX FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNING O'RNI..... 16

6. Rahmatullayeva Sayyora Yuldashevna

MUHAMMAD RAHIMXON HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGI 18

7. Habibullayeva Mavjuda Mamarajabovna

DALVARZINTEPA YODGORLIKHLARI – KUSHON IMPERIYASINING BIRINCHI
POYTAXTI 20

8. Hoshimova Muhabbat Polvonovna

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATINING QISQACHA TARIXI 22

9. Rasulova Gulshoda

TARIX DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI..... 23

10. Nazarova Zebo Narziqulovna

TARIXIY MATERIAL VOSITASIDA O'QITISH..... 24

11. Saidova Nazokat

TARIX O'QITISH METODIKASININING MAQSADI..... 26



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

АҲМАД ДОНИШНИНГ ЭЛЧИЛИК ФАОЛИЯТИ

Аҳмедова Гулнора Иссоқовна
Косонсой тумани 8-сонли мактаб
тарих фани ўқитувчиси
тел: 934067486

Аннотация: Ушбу мақолада Аҳмад Донишнинг фаолияти билан боғлиқ асарлар ва ўша вакт тарихий шароитида илғор сиёсий қарашлар, элчилик фаолияти ҳақида малумотлар берилган.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, манғитлар, Аҳмад Дониш, “Наводир ул-вақое” (“Нодир воқеалар”), “Рисола” асарлари

Аҳмад Дониш буюк файласуф олим ва тарихчи бўлиши билан бирга, Бухоро амирлиги ҳукуматининг элчиси ҳам эди. Дипломатик муносабатлар туфайли Аҳмад Дониш ўз фаолияти давомида уч марта Бухоро амирлиги ҳукумати номидан Русияга элчи қилиб юборилди. Мазкур элчилик сафарларидан бошқа Бухоро амири бундан аввал ҳам, кейин ҳам кўплаб амалдорлар, бой савдогарлар ва олимларни Русия, Хиндистон, Эрон ва Афғонистон давлатларига элчи қилиб юборган. Ҳар бир элчилик миссияси олдига алоҳида – алоҳида вазифалар ҳам белгилаб берилган. Биз юқорида таъкидлаб ўтган Аҳмад Донишнинг 1856, 1869, 1873-1874 йиллардаги Русияга уюштирилган элчилик сафарининг олдига ҳам муҳим вазифалар қўйилган эди. Мазкур вазифалар қўйидагилардир:

1. Чор Россияси подшолиги билан Бухоро амирлиги ўртасида мустаҳкам дўстлик алоқасини боғлаш.
2. Давлатлар ўртасидаги мавжуд иқтисодий алоқалар, савдо – сотик, тижорат муносабатларини янада ривожлантириши.
3. Подшолик ва амирлик ўртасида маданий алоқаларни ривожлантириш.
4. Чор Россияси подшолигининг иқтисодий қудратини, ишлаб чиқариш корхоналари уларнинг фаолиятини ўрганиш.
5. Подшоликнинг ҳарбий қудратини, аскарларнинг техник салоҳиятини ўрганиш ва буни амирликнинг низомсиз аскарларига ўргатиш.
6. Подшоликдаги таълим тизимининг асосларини аниқлаш ва мактаблар фаолиятини ўрганиш.
7. Бухоро амирлигига Чор Россияси подшолигининг элчиларини таклиф этиш.
8. Император Александр II қизининг тўйи муносабати билан Бухоро амири Амир Музаффарнинг тўй саломи ва совғаларини императорга етказиш ва бошқалар шулар жумласидандир.

Аҳмад Донишнинг Москва, Петербург шаҳарларида бўлиб қайтиши, унинг тарақкийпарвар ижтимоий – фалсафий фикрларини ўсишига олиб келди [1]. Натижада унинг илғор ижтимоий – фалсафий фикрлари баён этилган асарлари дунёга келди. Бу вақтда ҳалқ оммаси ўз орасидан золимларга қарши ботирлар етиштириб берганидек, демократик кайфиятда бўлган зиёлилар ўртасидан ҳам юксак онгли, темир иродали кишилар етишиб чиқдики, булар реакцион руҳонийларнинг жаҳолатпарастлигига қарши – маърифатпарвар-лик, илм-фан учун, зўравонликка қарши- адолат учун, инсонпарварлик учун дадил ҳаракат қилдилар. Бухорода ўша замон демократик оқимининг энг машҳур ва етакчи арбоби Аҳмад Дониш эди. Аҳмад Дониш XIX асрнинг иккинчи яримда Бухоро амирлиги ҳаётидаги барча ижтимоий, сиёсий ва маънавий-маърифий воқеаларнинг шоҳиди бўлди. Шунингдек, йирик ер эгалари ва судхўрлар дехқонларни, хунарманд ва оддий меҳнаткаш омма вакилларини



қандай эзаётганларини ўз кўзи билан кўрди.

У борган мамлакатлар ва шаҳарлардаги тараққиётни, инсонларнинг онгидағи ўзгаришларни ўз кўзи билан кўрди ва тегишли хulosалар чиқарди. Аллома барча маърифатпарвар ғояларини Бухоро амирлигининг тараққиёти йўлида сафарбар қилди. Подшо Россиясига юборилган элчиларни Москва ва Петербург шаҳарларида махсус тайёргарликлар билан кутиб олишди, ўз мавқеларига яраша мулозамат кўрсатиши. Элчиларга Чор Россияси подшолигининг тарихи, иқтисодий ва ҳарбий қудратини намойиш этиш мақсадида бир неча бор саёҳатлар уюштирилди. Шунингдек, уларнинг маданий ҳордик чиқаришлари учун турфа томошалар ва ўйин – кулгулар ташкил этилди. Бухоро элчилари подшоликнинг катта амалдорлари, савдогарлари ва чет эллардан келган бошқа элчилар билан таништирилди. Бу эса ўз навбатида Бухоро амирлиги ҳукумати номидан келган дипломатик вакилларнинг бошқа давлатлардан (бу ерда Чор Россиясига қарам бўлган мамлакатлардан келган элчилар назарда тутилмоқда) келган элчилар билан ўзаро фикр алмашиш имконияти пайдо бўлди. Бундан ташқари бу каби танишувлар Бухоро амирлигининг бошқа қўшни давлатлар билан ҳам иқтисодий, сиёсий ва маданий алоқаларининг мустаҳкамланишига сабаб бўлди, десак муболаға бўлмайди. Масалан, 1873-1874 йилларда Абдулқодирбек доддоҳ бошчилигида Бухоро амирлигидан жўнатилган элчилар император Александр II қизининг тўйи муносабати билан бошқа мамлакатлардан таклиф этилган элчилар билан ҳам танишиши ва яқин мулокатда бўлиши.

Шунингдек, императорнинг ўзи Бухоро элчиларига алоҳида эътибор қаратиб, ҳатто файласуф Аҳмад Донишга рус тили ва маданиятини ўрганишини таклиф қилди. Аҳмад До-ниш ҳам императорга миннатдорчилик билдирган ҳолда, агар кўпроқ вақти бўлганида эди, қизғин мажлислар ва томошаларга қатнашмай рус тилини ўрганган бўлардим, деб жавоб беради. Подшо Александр II га Аҳмад Донишнинг бундай дадил фикрлари жуда мақбул келади ва бунинг учун уни тақдирлайди ҳам.

Элчиларнинг қайтишида Россия подшолиги ҳам мезбонларга хос совға-саломлар бериб алоҳида мулозамат билан кузатиб қўйишади.

Бухоро ҳукумати элчиларининг Чор Россияси подшолиги билан иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлаши натижасида Ўрта Осиёга рус капиталининг кириб келиши янада жадаллашади. Бу эса ўз навбатида қолоқ феодал мамлакатда ҳам илғор буржуа муносабатларининг кенгайиши ва ривожланишига сабаб бўлади.

Аҳмад Донишнинг Москва ва Петербург шаҳарларида бўлиши, давлат бошқарувининг ўзига хос шаклларини кўриши унда бошқарув тизимиға оид янгидан-янги қарашларнинг пайдо бўлишига замин яратади.

Бухоро амирлиги ва Россия империяси ўртасидаги муносабатлар Амир Музаффарнинг Петербургга қилган ташрифидан сўнг янада мустаҳкамланди, десак муболаға бўлмайди. Аҳмад Дониш мазкур ташриф тафсилотини ўзининг “Наводирул вақое” асари, ва “Амирлар саргузашти” рисоласида баён этади [2]. Амир Музаффар мазкур сафар давомида Россия подшолигининг ҳарбий қудрати ва салоҳияти билан яқиндан танишади. Амирга подшолик аскарларининг интизоми ва техник салоҳияти жуда ёқади.

Хулоса ўрнида айтганда, Аҳмад Донишнинг элчилик фаолияти Бухоро амирлиги ва Чор Россияси ўртасидаги иқтисодий, сиёсий ва маданий алоқаларнинг янада мустаҳкамланишига сабаб бўлди. Аллома А. Дониш қилган сафарлари давомида Москва ва Петербург шаҳарларида кўрган янгиликларини Бухорода татбиқ этди. У маориф тизимиға ҳамда давлат бошқарув тизимиға ҳам оид демократик ислоҳатларнинг тарафдори бўлди. Унинг Петербургга қилган сафари ва император қизининг тўйи муносабати билан ёзган тўққиз байтлик шеъри орқали императорнинг эътиборини тортди ва бу билан ундан аввалги элчиларнинг қилган гуноҳлари ҳам ювилиб кетади. Бу хизмати учун эса императордан махсус тортиқ ҳам олди. Бухоро амирлиги ва Россия империяси муносабатлари Музаффархон даврида яъни, Аҳмад Дониш элчилигидан кейин янада ривожланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И. Муминов. Из истории общественной и философской мысли Узбекистана конца XIX и начала XX веков. Издание Узбекского Государственного университета им. А. Навои, Самарканд. 1949, С. 126.
2. А.Дониш Наводирул вақое. Тошкент, «Фан», 1964, 232-233-бетлар.



TARIX FANINI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

*Xudoyberdiyev Bunyodbek Muhammadjonovich
Namangan viloyati Namangan tumanidagi
12-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi
Telefon raqam: +998932682808*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar, ularni tarix fanining o'qitishdagi ahamiyati va afzalliklari, dars jarayonida qanday metodlarni qo'llash muhimligi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, texnik vositalar, tarix fanini o'qitish, yangi mavzu, mustahkamlash darslari, metodlarning afzalikllari.

Bugungi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lif sohasida juda keng qo'llanilib kelinmoqda. Pedagogik texnologiya masalalari va muammolarini o'rganayotgan pedagoglarning fikricha, pedagogik texnologiya asosida o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lган o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor kabilarning bo'lishi, albatta, muhimdir. Bunday texnika vositalari dars jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishdan asosiy maqsad, o'qituvchi va talaba(o'quvchi) ning hamkorlikda belgilangan va ko'zlangan maqsadga erishishlari va o'rganilayotgan mavzu yoki bilimni oson va qulay tarzda o'rganish orqali bu ma'lumotlarni uzoq vaqt mobaynida esda saqlashdan iboratdir.

Tarix fanini o'qitishda ham boshqa fanlar qatori ma'lum bir yutuqlarga erishish, o'quvchilar faolligini oshirish va albatta, shu qatori o'qituvchining ham kasbiy mahoratini rivojlantirish eng asosiy maqsad hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalarini qo'llash o'qituvchidan fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko'nikma va malakani ham talab etadi. Ya'ni o'qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o'rinni ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi.

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirishni oldindan loyihalash lozim.

Bunda joy va sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Ba'zi texnologiyalarini qo'llash uchun sinf xonasida yetarlicha sharoit bo'lmasligi ham mumkin. Yana bir jihat pedagogik texnologiyalarini tanlashdan oldin o'quvchi-talabalarning bilim salohiyatini ham hisobga olish zarur. Dastlab ular uchun sodda va osonroq metodlarni dars jarayonida qo'llab, so'ngra ularda bu kabi darslarga ko'nikma hosil bo'lgach, metod va texnologiyalarning murakkabrog'idan foydalanssa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarini tarix fanini o'qitishda qo'llash o'quvchi- talabalarda quyidagi kabilarni rivojlantiridi:

- avvalo, ularni tarix faniga qiziqishlarini orttiradi;
- ularda mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantiradi;
- mantiqiy va tezkor fikrlashga o'rgatadi;
- o'zlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatadi;
- bilim sohasida o'zgalardan ortda qolmaslikka o'rgatadi;
- mushohadali bo'lishga o'rgatadi;
- ularda tahviliy- tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi;
- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- natija va maqsadga intilishning muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishadi;
- ulardag'i tortinchoqlik o'rnni faoliy degan muhim tushuncha egallaydi...

Pedagogik texnologiyalarning yuqoridaagi kabi yutuqlarini sanab-sanog'iga yetish mushkulroq. Bu texnologiyaning bu kabi afzalliklari ta'lif sohasida o'z isbotini topishga ulgurdi va ta'lif sohasida u orqali ijobiy natijalarga ham erishib kelinmoqda.

Xo'sh, tarix fanini o'qitishda qanday metodlardan foydalangan ma'qul, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy.

Tarix fanini o'qitishda yangi mavzularni tushuntirishda "Tarmoqlar", "BBB", "Qora quti", "Sayohat", "Wenn diagrammasi" kabi bir qator metodlardan foydalanssa, mustahkamlash darslarida "T chizmasi", "Zinama- zina", "Aqliy hujum", "fikriy hujum", "Klaster", "Moychechak",



Charxpalak" kabi mustahkamlash darslarida faol qo'llaniladigan metodlarni qo'llash darslarni yanada qiziqarli va o'quvchilar yodida qolarli tarzda o'tishini ta'minlaydi. Chunki o'quvchi bu kabi metodlar orqali mavzuni yanada oson va mukammalroq tushunadilar.

Har bir pedagog o'z fanini o'quvchi- talabalar tomonidan sevimli va qiziqarli bo'lishini xohlaydi.

Pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan har bir pedagog o'quvchi- talabalar tomonidan nafaqat hurmatga sazovor bo'ladi, shuning bilan birga o'z fanini ular tomonidan sevimli fan bo'lishiga ham erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi 9-sinf Toshkent-2019.



ДАВЛАТ АРБОБИ, МАЪРИФАТПАРVAR, ОЛИМ, АДИБ, ШОИР ВА ХУШНАВИС ХАТТОТ –ШАРИФЖОН МАХДУМ

*Самадова Ҳурмат Машарифовна БухДУ "Тарихшунослик,
манбашинослик ва тарихий тадқиқот усуллари (мамлакатлар
бўйича)" йўналиши I-босқич магистратура талабаси, Қоракўл
туман 20-умумтаълим мактаби тарих фани ўқитувчisi
Телефон: +998(93)-681-15-77
samadova8989@mail.ru*

Аннотация: тезисда давлат арбоби, олим, шоир, хаттот Шарифжон Махдум (Садри Зиё) нинг ҳаёти, фаолияти, илмий мероси, унинг ўрганилиши тўғрисида қисқача маълумот берилди.

Калит сўз: “Мирзо Муҳаммад Шариф”, “Муҳаммад Шариф маҳдум”, “қози Шарифжон”, “Муҳаммад Шарифжон маҳдум садр – Зиё”, “Наводири Зиёя”.

XIX аср охири – XX аср бошида Бухорода яшаб, Ўрта Осиё маданий-маърифий ҳаётига улкан ҳисса қўшган адаб, шоир ва олим ҳамда хушнавис хаттот Муҳаммад Шарифжон маҳдум садр Бухорий – Зиё (Зиё Садр) ўзидан турли мавзулардаги илмий, бадиий асарлар мерос қолдирган. Шарифжон маҳдум ўша давр анъанасига кўра асарларини форс-тоzik тилида яратган. Аммо афсуски, унинг ҳаёт йўли ва бой адабий, тарихий мероси кам ўрганилган, устига-устак бор-йўғи икки-учта асаригина форс-тоzik тилида нашр этилган, холос.

Шарифжон маҳдумнинг ажойиб фазилатларидан яна бири шуким, китобсевар бу маърифатпарвар инсон қадимий нодир қўллэзма китобларни ўз маблағи эвазага сотиб олиб, ана шу бебаҳо ҳазинани авлодларга бегараз равишда ёдгор қолдирган. Айни пайтда ЎзФАШИ қўллэзмалар ҳазинасида сақланаётган араб, форс, ўзбек тилларида битилган мазкур китоблардан бутун жаҳон илм аҳли манба сифатида фойдаланмоқда, китобат санъатининг бу гўзал намуналари юртимизда ота-боболаримиз илм-маърифат, жумладан, ақл чироги саналган китоб яратиш ишига нечоғлик жиҳдийлик билан муносабатда бўлганини кўрсатмоқда.

Шарифжон маҳдум садр – Зиё 1865 йил 24 февраляда Бухоро амирлигига қарашли Зиёуддин туманида давлат томонидан қозилик мансабида турган Домла Абдишукур бин Абдирасул оиласида дунёга келган. Исли туғилган жойига нисбатан “Зиёуддин” ва туғилган шариф рамазон ойи назарда тутилиб “Муҳаммад Шариф” деб аталган. Кейинчалик, яъни Шарифжон ўқимишли зиёли бўлиб етишгач, бу исм ёнига наслу насабига кўра “маҳдум” ва моҳир хаттотлиги ва мансаби сабабли “мирзо”, Бухоро давлатида эришган яна бир лавозими бўйича “садр” ва “қози” нисбалари ҳамда шеърда қўллаган адабий тахаллуси бўлмиш “Зиё” сўзи қўшилиб, ҳужжат, адабий асар ва халқ тилида “Мирзо Муҳаммад Шариф”, “Муҳаммад Шариф маҳдум”, “қози Шарифжон”, “Муҳаммад Шарифжон маҳдум садр – Зиё” тарзида тилга олинган. Шарифжон маҳдум ўз муҳрига “Қози мирзо Муҳаммад Шариф Судур” сўзларини ўйдириб ёзган, Бухоро ҳукмдори амир Олимхон эса бир ҳужжатда унинг номини “Қози мирзо Муҳаммад Шариф садр” шаклида қайд этган. Кейинчалик садрлик лавозими ва шеърдаги тахаллуси сабаб бўлиб, Шарифжон маҳдум “Садр Зиё” номи билан танилган. Совет даври ҳужжатларида эса аллома номи “Шариф Шукуров” шаклида расмийлаштирилган.

Дастлабки илмни отаси қошида олиб, сўнг турли илмларни Бухоронинг бир нечта мадрасаларида таниқли устозлардан пухта ўзлаштирган Шарифжон маҳдум 26 ёшида амир Абдулаҳад (1885 – 1910) давлати ишларига жалб этилиб, 1893 йил 9 майида Хайробод туманига қози этиб тайинланган ва то 1920 йилда рўй берган Бухоро инқилобигача Пешку, Воғонзи, Гиждувон, Янгиқўргон, Чаҳоржўй, Қарши, Шахрисабз каби туманларда ана шу мансабдаги ишини давом эттирган. 1917 йил 27 марта амир Олимхон уни маърифатпарвар вазир Мирзо Насруллоҳ Кўшбеги тавсиясига биноан Бухоро шаҳри қозикалони қилиб ҳам тайинлаган. Чунки бу пайтда Россияда февраль тўнтариши рўй берган ва давлат тузуми ўзгарган бўлиб, амир ўша йил апрель ойида мажбур ҳолатда чиқарган манифестга кўра халққа бир нечта эркинликлар беришни ваъда қилиб, Шарифжон маҳдум сингари ҳурфиқрли зиёлиларни ҳукумати таркибиға киритганди. Аммо Зиё Садр жадидларга



хайриҳоҳ бўлгани сабабли икки юзламачи амир ва унга тарафдор жоҳиллар тазиикига учрайди. Амир Олимхон жоҳиллар талабига кўра Насруллоҳ Кўшбегини ишдан бўшатиб, Зиё Садрни Қаршига қози қилиб юборади. Сал ўтиб эса амир Олимхон янгича қарашдаги “ёш бухороликлар” ташкилотига аъзо зиёлиларни қариндош-уруғлари билан бирга, жумладан, собиқ вазир Насруллоҳ Кўшбегини ҳам яқинлари билан бирга ўлим жазосига ҳукм этади. Бу пайтда Қаршида турган Зиё Садр ҳам бир неча кундан сўнг оиласи билан ҳибсга олиниди ва мол-мулки мусодара қилиниб, кутубхонасининг бир қисми ва асарлари қўллэзмалари ёндириб юборилади. Сал ўтиб у озод этилади ва Шахрисабзга қози этиб тайинланади, бироқ доим кузатув остида бўлади.

Зиё Садр Бухородаги 1920-йил 2-сентябрдаги инқилобдан кейин Бухоро Халқ Совет Республикасининг Вақф ишлари бошқармаси хизматчиси, шариат бошқармаси раиси ўринбосари ва Ибн Сино номли кутубхона ходими каби вазифаларда туради. 1923 – 1924 йилларда эса ишсиз қоларкан, ижод ва йўқолган асарларини қайти тиклаш билан шуғулланади.

Зиё Садр хаёти ва ижоди асосан унинг ўз асарларида баён этилган бўлиб, бироқ бу асарлардан айримлари, юқорида кўрганимиздек, ўша давр ҳодисалари оқибатида – амир Олимхон давридаги мансаб ўзгариши натижасида рўй берган дарбадарлик ва ҳурфиксрили зиёлиларга нисбатан юзага келган бадбинлик қарашлари, шунингдек, инқилобдан кейинги сиёсий тазиик, яъни ҳибсга олиниб, асарларининг мусодара қилиниши натижасида нобуд бўлган.

Шу сабабли Зиё Садр ҳакида маълумот берган замондош дўстлари Шаръийнинг “Тазкират уш-шуаро”, Қори Раҳматуллоҳ Возихнинг “Тухфат ул-аҳбоб фи тазкират ал-асхоб” (Тошкент: 1914), Афзал Пирмастийнинг “Афзал ут-тазкор фи зикр аш-шуаро ва-л-ашъор” (Тошкент: 1918), Абдийнинг “Тазкират уш-шуаро мутаахирини Бухоро”, Неъматуллоҳ Мухтарамнинг “Тазкират уш-шуаро”, Садриддин Айнийнинг “Тарихи амирони манғитияйи Бухоро” (Тошкент: 1923), “Намунаи адабиёти тожик” (Москва: 1926) асарлари муҳим манба саналади. Бироқ бизгача қўллэзма ҳолида ёки босма (араб алифбосида, форсча) шаклида этиб келган бу асарларнинг хеч бири ўзбекчага таржима қилинмаган. Профессор Шодмон Воҳидов ёзишича, Зиё Садрнинг тарих, география, шаҳарсозлик, табиатшунослик, боғдорчилик, Бухоро мадрасалари тарихи ва адабиётшунослик, хаттотлик соҳасига оид яратган асарлари сони 75 тага етади. Айниқса унинг алоҳида мавзулардан иборат бешта асарни ўз ичига олган “Наводири Зиёя” китобида муаллиф таржимаи ҳоли; салжуқийлар, темурийлар, шайбонийлар, аштархонийлар, манғит ҳукмдорлари давлатида фаолият кўрсатган машҳур вазирлар (Ибн Сино, Абу Наср Форобий, Ҳасан Маймандий, Низомулмулқ, Алишер Навоий ва ҳакозолар.); Бухоро инқилоби (1920) сабаблари; замондош мансабдорлар ва шоирлар ҳаётига оид қизиқарли ҳикоялар; ўша даврнинг 23 нафар сарой шоирлари ҳақидаги маълумотлар ўрин олган.

Ҳозирги замон тожик олимларидан Р. Ҳодизода, Саҳобиддин Сиддиқий, М. Шакурий ва эронлик олим С. А. Мўжоний ва ўзбек олимлари У. Ҳамроев, Ш. Эсонова, А. Жуманазаров, Тахмина Воҳидова ҳамда рус, инглиз, француз тилларида Зиё Садр ҳаёти ва ижоди ҳакида муҳим маълумотлар ҳавола этган Ш. Воҳидов, Б. Бобоҷонов, А. Мўъминов, А. Эркинов, З. Чориев, Э. Ахунжонов, М. Сайджонов, Д. Янгибоева сингари олимлар ҳам бу соҳага ўз ҳиссаларини қўшдилар.

Аммо шу пайтгача Шарифжон махдумнинг улкан меросидан фақат бир нечта асаригина Тожикистон ва Эронда (араб алифбосида) нашр этилди, холос.

Ҳозирги кунда дунё қўллэзмалари ҳазиналарида Ҳасанхожа Нисорий (1512 – 1598) қаламига мансуб “Музаккири аҳбоб” асарининг ўндан ортиқ қўллэзма нусхалари мавжуд бўлиб, улардан бештаси ЎзФАШИ ҳазинасида сақланади. Бу ноёб қўллэзмаларнинг 4282 рақамли нусхаси Нисорий қўли билан 1588 йилда китобат қилинган. Бу нусханинг бир нечта варағига Зиё Садр ўз фикрларини ёзib қўйган. Демак, бу қўллэзма ҳам Зиё Садрнинг шахсий кутубхонасида сақланган. Мир Сиддиқ-Ҳашмат ўзининг “Тазкират уш-шуаро” ва “Номайи ҳусравон” тазкираларини яратишда Мутрибий Самарқандий (түғ.1556) қаламига мансуб “Тазкират уш-шуаро” (1605) асаридан фойдаланган ва бу ҳақида ўзи аниқ ҳабар берган. Ўша асарнинг Мутрибий ўз қўли билан ёзган ва ўша давр ҳукмдори Вали Муҳаммадхонга топширган қўллэзма нусхаси ҳозир дунёда ягона саналиб, у ҳам ЎзФАШИ ҳазинасида сақланади.



ЎзФА Шарқшунослик институтининг дунё олимлариға кўз-кўз қилиб кўрсатадиган яна бир фахри – Амир Хусрав Дехлавий (1253 – 1325) “Хамса”сининг буюк мутафаккир Ҳофиз Шерозий (1331 – 1390) томонидан кўчириб ёзилган нусхаси. Бу табаррук қўлёзма нусха ҳам Зиё Садрнинг ҳиммати билан сақланиб қолган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Садриддин Айний. “Тарихи амировони манғитияйи Бухоро”, Т.: 1923
2. “Намунаи адабиёти тожик”. М.: 1926
3. Интернет манбалари



ALISHER NAVOIY "TARIXI MULUKI AJAM" ASARINING
JIHATLARI

TARIXIY

*Sabohat Baltayeva-Buxoro shahar XTBga
qarashli 6-IDUM tarix fani o'qituvchisi
Telefon. +998(97) 292 50 10
Mr.axror_2020@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada o'zbek xalqining mutafakkir shoiri A.Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining tarixiy jihatlari, undagi afsonaviy sulolalar vakillari hukmronligi va shoirning insonparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi qarashlari atroficha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: "Tarixi muluki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo", peshdodiyilar, kayoniylar, ashkoniyilar, sosoniylar, "Shohnoma", "Tarixi at-Tabariy", Nizom ut-tavorix", "Nasihat ul-muluk", "Tarixi Banokatiy".

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy hayotiy faoliyati ko'p qirrali va samarali bo'lib, o'zbek xalqi ma'nnaviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo ochig'ini aytish kerakki, uni ko'proq "she'riyat sulton" sifatida tanimiz va qadrlaymiz. Vaholanki, u davlat ravnaqi, yurt istiqboliga salmoqli hissa qo'shgan yirik davlat va jamoat arbobi hamdir. Alisher Navoiy o'z zamonasining barcha ijtimoiy ilmlar bilimdonidir, alloma asarlarida tarixiylik, tarixning yoritilishi, ijodkorning tarixga munosabati, uning asarlarida asotiriy qatlamning o'rni va undan foydalanish hamda asotiriy qatlam ostidagi tarixiylik masalalari alohida o'r'in tutadi.

Alisher Navoiyning tarixiy asarlari, ijodidagi tarixiy jihatlar hali ko'p o'rganilmagan. U ham boshqa o'rta asr mualliflari singari siyosiy, tarixiy ma'lumotlarni rivoyat, hikoyat usulida, biroq o'ziga xos badiiy tarzda bayon qilgan. O'zi ta'kidlaganidek, boshqa asarlarni chuqur o'rganib, yuqori darajada ijod namunalarini yaratgan. Ijodkorning "Tarixi muluki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlab yozmoqchi bo'lgan asarining boshlang'ich bo'lagidir.

"Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Navoiy payg'ambarlar va hakimlar tarixidan parchalar keltirib, ko'p tarixiy voqealarni o'zidan oldingi yozilgan manbalar asosida yoritishga harakat qilgan. Aynan Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida ko'hna Eronda hukmronlik qilgan peshdodiyilar, kayoniylar, ashkoniyilar va sosoniylar sulolalari davri bayon etilgan. "Tarixi muluki Ajam" -

Ajam- arab bo'limgan, muluk- malik, podshoh ma'nosini bildirib, ko'pligi muluk-ya'ni podshohlar demakdir. Bu asar asosan Eron mamlakati podshohlari tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Eron hududida hukmronlik qilgan sulolalarning to'rttasi to'g'risida fikr yuritilgan. Asarda qayd qilinishicha, muallif o'z tadqiqotini yoritishda Firdavsiyning "Shohnoma", at-Tabariyning "Tarixi at-Tabariy", Abuxayr Bayzoviyning "Nizom ut-tavorix", al-G'azzoliyning "Nasihat ul-muluk", Al-Banokatiyning "Tarixi Banokatiy", Abubakr al-Qazviniyning "Tarixi guzida" asarlaridan foydalangan.

Aslini olganda, peshdodiyilar, kayoniylar va ashkoniyilar afsonaviy sulolalardir. Shu bois ular haqida hikoya qilingan qismlaridagi voqeа va hodisalar tarixiy haqiqatga mos tushmaydi. Navoiyning mazkur afsonaviy sulolalar vakillari hukmronligini bayon qilishdan asosiy maqsadi, o'zining falsafiy mohiyat kasb etuvchi insonparvarlik qarashlarini tarixiy janr vositasi bilan targ'ib va tashviq etish bo'lgan. Asardan bir iqtibos keltirsak : "Xushang xiradmand va odil , olim podshoh erdi, va "Jovili xirad" ottig' kitobini hikmat ilmida ul tasnif qildikim, ajam oni payg'ambar debdurlar. Dod va adl jihatidan ani peshdod dedilar...". Navoiyning aytishicha, "hukmdor odil bo'limg'i lozim, agar u zolim bo'lsa, davlati zavolga yuz tutadi va xalq noroziligi isyonga aylanadi".

Navoiy xalq og'zaki ijodidagi hikoya va maqollardan keng foydalanib, asarning xalqchillik ruhini yanada ko'targan. Asarda keltirilgan birinchi tabaqa vakillari peshdodiyilar bo'lib, ular haqida quyidagilar keltirilgan:

Ajam tarixida fors sultonlarini to'rt tabaqa qilibdurlar. Burung'i tabaqa peshdodiylardur va alar o'n bir kishidurlarkim, saltanat qilibdurlar. Tarix ulamosi ittifoqi bila birovkim avval saltanat qildi, Qayumars erdi. Va tarix ahli ittifoqi bila Qayumars zamonidin Zahhok zamonig'acha ming yilg'a yaqin bor. Har taqdir bila podshohlik qoidasi andin burun yo'q erdi. Bu qoidani ul



tuzdi. Dag'i avval kishikim shahar bino qildi ul erdi. Damovandin bino qildi, ammo anda goh bo'lur erdi. Dag'i Istaxrni bino qildi , ammo ko'prak avqot anda bo'lur erdi. Ming yashdi va lekin umrining oxirida qirq yil sultanat qildi. Dag'i Siyomak o'g'li Hushangnikim nabirasi erdi, valiahd qilib, vafosiz jahong'a vido' etti.

Burunroq kishikim tuzub rudu jom,
Jahondorliq taxtin etti maqom.
Qayumars edi, lek davroni dun,
Anga berdi bozi boridin burun.

Xushang xiradmand va odil va olim podshoh erdi va "Jovidon xirad" otlig' kitobini amali hikmatida ul tasnif qildikim, Ma'mun xalifa vaziri Hasan Sahl andin biror nima topib, arab tiliga tarjima qilibdur.... Dag'i ul mavzuda shahar bino qilib, otin Balh qo'ydi. Va Sus bila Bobil shahrini Hushang yasadi. Va ba'zi Kufani ham anga mansub qilibdurlar.

Navoiy ushbu asarning peshdodiylar sulolasiga bag'ishlagan qismida, peshdodiylar sulolasiga asos solinishi va podshohlarning hukmronligi davrida nima ishlarni qilganligi haqida ma'lumotlar keltirgan va bir qancha tarixiy joylarning nomini tilga olgan. Asarda Navoiy peshdodiylar sulolasining birinchi vakili Qayumars ekanligini va davlatni u tuzganligini aytib, o'n bir kishi shu sulolani boshqarganligi haqida aytib o'tgan. Yana shu sulolaga mansub bo'lган Jamshid, Faridun, Afrosiyob, Girshosb haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi tabaqa kayoniylardur. Kayoniylardan to'qqiz kishi sultanat qildi. Ba'zilar Iskandarni alardan tutubdirlar va o'n debdurlar. Alarning sultanati 700 yildan yuqoriyoqdir. Ulardan birinchi bo'lib Qayqubod sultanat qildi. U ko'p vaqtini Jayhun bo'yida o'tkazib, atrok bilan urushib yurdi.

Qayqovus kim, ba'zi Qayqubodning o'g'li debdurlar, ba'zi nabirasi debdurlar. Chun aning valiahdi erdi, aning o'rniq'a –sultanat taxtig'a o'lturdi.... Va Qayqovus yuz ellik yil podshohlig' qildi. Kayxisravni chun Qayu Turon zamindin keturdi, Eronda sultanat taxtig'a o'lturdi.

Asarda kayoniylar tabaqasi podshohlari ham afsonaviy qahramonlar ekanligini ushbu jumlalardan bilish mumkin: "Qayqovus yuz ellik yil podshohlig' qildi". Shuningdek, shu sulolaga mansub bo'lган podshohlardan Gushtosb, Doro Binni Dorob, Iskandarlar haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Uchinchi tabaqa ashkoniylardir. Tarix ahli orasida bu tabaqaning sultonlari tartibida bag'oyat muxolifat (kelishmovchilik) ko'ptur. Ashk Binni Doro, Shopur Binni Ashk, Bahrom Binni Shopur, Yalosh Binni Bihrom, Binni Yalosh, Anush Binni Yalosh kabi sulola podshohlari haqida, ularning qilgan ishlari haqida o'zidan oldingi tarixchilar yozib qoldirgan ma'lumotlariga asoslanib, ma'lumotlar berib o'tgan.

To'rtinchchi tabaqa vakillari sosoniylardur. "Kim alarni akobira debdurlar. Bularning ham sonlarini har xil bitibdurlar. Ba'zi o'tuz ikki va ba'zi o'tuz bir va ba'zi yigirma sakkiz va sultanatning muddatlarini ham muvofiq bitmaydurlar..."- deydi Navoiy. Ya'ni sosoniyllarning sultanati qancha yil hukmronlik qilganligi haqida aniq bir ma'lumot yo'qligini aytib o'tgan.

Shopur Binni Ardasher. Chun atosi o'rnida taxtqa o'lturdi, ato rasm va qonunin tag'yir bermadi va ul tayir qilg'an elni viloyatlardin va manosibdin azl qilmadi. Va oqil va odil podshoh erdi. Asarda yana, Yazdijir Binni Bahrom, No'shirvon ul- Odil Binni Qubod, Turondo'xt, Ozarmdo'xt podshohlar haqida aytib o'tilgan.

Xulosa o'rnida takidlash lozimki, Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida podshohlarnig odil bo'lishi va o'zidan ezgu ishlarni namuna sifatida qoldirishi haqida yozadi. Ushbu asar noyob ilmiy asarlardan biri sifatida hozir ham o`z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyotlar:

1. A. Navoiy. Tarixi muluki ajam. T-2000 y.
2. A. Qayumov Alisher Navoiy. T-1976.
3. L.Xalilov. Alisher Navoiy "Tarixi muluki ajam" asarining tekstologik tadqiqi. Nomzodlik dissertatsiyasi. -T.:1975;



TARIX FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNING O'RNI

*Bekzod Boymatov Xidirboyevich
Jizzax viloyati Zafarobod tumani
9-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Tarix fani o'qituvchisi
+998996643416
bekzod3416@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tarix darslarida sinfdan tashqari qilinadigan ishlarning ahamiyati va u orqali ta'lim sifat - samaradorligini oshirishda yuqori muvafaqqiyatga zamin yaratishi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sinfdan tashqari ishlar, tarixiy adabiyot, tarixiy shahar, o'lkashunoslik muzey, virtual ekskursiya, tarixiy kechalar, tanlovlар, seminarlar, musobaqa, arxeologiya, madaniyat va san'at tarixi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratdi. Jumladan, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida yosh avlodni bilimli, qobiliyatli, har tomonlama rivojlangan, yetuk fazilatlar egalari qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib belgilab qo'yilmoqda. Shu ishlarni amalga oshirishda bir qator tadbirlarni ya'ni maktablarda sinfdan tashqari ishlarning tashkil etish orqali ta'limning sifat - samaradorligini muvafaqqiyatiga zamin yaratadi.

O'quvchilarning tarix faniga qiziqishini orttirish va bilim olishga bo'lgan talabini qondirish, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, jamiyat va atrof muhitning o'zaro aloqadorligini anglash, yuksak ma'naviyat va xulq-atvor, dunyo qarashini har tomonlama yetuk va ijodiy fikrashni qaror toptirish uchun ta'lim jarayoniga o'zgacha yondashuvga zarurat sezildi.

Tarix darsida sinfdan tashqari ishlarning tashkil etish maktabda ko'p uchraydigani bu ommoviy ishlardir. Ayniqsa, tarixiy adabiyot mutolaa qilish, tarixiy filmlar ko'rish, tarixiy shaharlarga sayohat qilish, tarixiy va o'lkashunoslik muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, jahonning tarixiy shaharlari va tarixiy qadamjoylariga virtual ekskursiyalar tashkil etish, tarixiy kechalar, tarix faniga oid tanlovlар, seminarlar, musobaqalar va shu kabi boshqa tadbirlarni misol qilib keltirish mumkin.

Maktabda tashkil etiladigan sinfdan tashqari qilinadigan ishlarda eng avvalo, o'quvchilarning yosh va kompitentsiyaviy xususiyatlariga qarab ko'rinishi va usullari turlicha bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda maktabda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari tashkil etilmoqda:

- tarix fani to'garagi, o'lkashunoslik muzeylari va zakovat klubini tashkil etish;
- tarixiy joylarga virtual ekskursiyalar, tarixiy va siyosiy xaritalar bilan ishlash tashkil etish;
- ijtimoiy fanlar oyligi davomida iqtidorli o'quvchilar ishtirokida referat va tarix kitobxoni tanlovini, o'quv seminarlar va tarixiy kechalar tashkil etish;
- tarixchi olimlar, yozuvchilar, faxriylar va qishloa nuroniylari bilan uchrashuvlar uyushtirish.

Maktabda tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarni qanday ko'rinishda tashkil etishdan qat'iy nazar, ular bir maqsadga ya'ni ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Yosh tarixchilar va tarixiy o'lkashunoslik to'garagida o'quvchilarning qiziqishlariga qarab har xil masalalar va mavzularda tarixiy shaxslar va tarixiy qahramonlarning hayoti, madaniyat va san'at tarixi, tarixiy o'lkashunoslik va har bir o'quvchi o'zi yashayotgan mahallasining tarixiga oid materiallari, Prezident asarlari, mamlakatlarning tarixiy va siyosiy xususiyatlar va Vatanimizning iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari tahlil qilinib o'rganiladi.

Maktabda tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishni tahlil qilganda birgina to'garak mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar tarixiy tadqiqotning ba'zi usullari va yo'nalishlari bilan ham ma'lum darajada tanishtirilib boriladi. Masalan: Yosh arxeologlar, Yosh o'lkashunoslik, Yosh arxivshunoslar va Yosh tarixchilar to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar arxeologiya ishlarni olib



borish ko`nikmasi, o`zлari yashayotgan mahallasining tarixiga oid o`lkashunoslik materiallarini yig`ish, arxivdagi tarix faniga oid bo`lgan kitoblar va qo`lyozmalar hamda hujjatlar bilan ishslash ko`nikmalarini shakllantiradilar.

Ayniqsa to`garak mashg`ulotlarida o`quvchilar ma`ruzalar va referatlar tayyorlaganda axborotni yig`ish, jamlash hamda uni yetkazib berish ko`nikmasi hosil bo`ladi. Bundan tashqari ko`rgazmali qurollar tayyorlash va ta`limga oid texnik hamda IT vositalari bilan ishslashni o`rganadilar.

Tarix fanidan tashkil etiladigan to`garak mashg`ulotlarida jahon tarixiga va madaniyatiga ulkan hisssa qo`shgan bobolarimiz ya`ni O`rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy boy merosini o`rganish orqali Vatanni sevish va g`ururlanish tuyg`ulari shakllantirib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabda sinfdan tashqari ishlarni ahamiyati katta bo`lib, u orqali o`quvchilarning tarix fanini o`rganishga bo`lgan qiziqishini oshiradi, darslar davomida olgan bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirishga hamda mustaqil ijodiy ishlay olish kompitentsiyalarini hosil qilishlariga yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O`zbekiston 2017 - yil.
2. Muhamedov G. I., To`raqulov X. A. "Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy - nazariy asoslari " Jizzax: Fan, 2004 - yil.
3. Toshpo`latov. T, G'afforov Y. -Tarix o`qitish metodikasi Toshkent 2002-yil.
4. Omonov X. T. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" O`zbekiston:.-Toshkent, 2012. yil.



MUHAMMAD RAHIMXON HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGI

*Rahmatullayeva Sayyora Yuldashevna
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
3-son maktab tarix fani o'qituvchisi
Telefon +998(97) 512 29 95*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarga Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning hukmronlik yillarda xonlikda amalga oshirilgan ishlar va ularning ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Vatan tarixini o'rghanishning ahamiyatini ochib berish bilan birga o'quvchilarda voqeа-hodisalardan to'g'ri xulosalar chiqara olish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir", Abdulla Qodiriy, Muhammad Rahimxon soniy – Feruz, Muhammad Yusuf Bayoniy, Arabmuhammadxon, Muhammad Aminxon, Sherg'ozixon, Muhammad Yusuf Xoji-Doiy, Mutrib, Faqiri, Chokar, Otajon Abdalov, "Nisobus-sibiyon".

"Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir" deganda buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy qanchalik haq edilar . Haqiqatan ham , yosh avlod tarbiyasida o'tmish haqiqatlarini o'rGANmasdan turib , hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi .

Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda“ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” . Buyuk davlat arbobi va madaniyat homiysi Muhammad Rahimxon soniy- Feruzning sharofati bilan XIX asr Xiva saroyi adabiy muhitida o'zbek madaniyati va san'ati maktabi faoliyat yuritdi. Xiva adabiy maktabining tashkilotchisi va bosh homiysi, eng faol ijodkori Muhammad Rahimxon Feruz edi. Butun faoliyati davomida xonlikda madaniyat va san'at rivojiga uning o'zi bosh-qosh bo'ldi.

Feruz o'z atrofiga mamlakatning eng yetuk aql-idrok sohiblarini va mohir ijodkorlarni to'plab, ularning ijod qilishlari uchun zarur barcha shart- sharoitlarni yaratib berdi va o'zi ham ularning ijod chamanidan ilhomlandi.

Feruzning fazilatlari haqida Muhammad Yusuf Bayoniy shunday yozadi:“ Ul hazrat ulamoni ko'p do'st tutor erdilar va she'riyati g'arroning (yorqin,jo'shqin) rivojiga sa'y etar erdilar va bag'oyat raiyatparvar va shafqatgustar va odil-u bozil kishi erdilar”

Ana shunday muhim xislatlarni o'zida mujassam etgan Feruz o'z atrofidagi kishilarning ham o'zi kabi bo'lismeni istar edi. U mamlakat ravnaqi ilm-fan, maorif va madaniyat, savdo-sotiq rivoji orqali bo'lismeni his etar edi. Shu bois ham Xivadagi Arabmuhammadxon, Muhammad Aminxon, Sherg'ozixon madrasalarida bo'lib, o'qish-o'qitish ishlarini nazorat qilar, mullavachchalarga xazina hisobidan moddiy yordam berar edi. O'z zamonasining yetuk olim va shoirlari ana shu madrasalarda oxundlik, mudarrislik qilardilar .

Ilm-ma'rifat bobida Xivadagi Arabmuhammadxon madrasasi mudarrisasi Muhammad Yusuf Hoji-Doiy yetakchi edi. U arab xalqlari turmushi, urf-odatlari, islam aqidalarini o'rganib, ona yurtiga qaytgach, Xivadagi yuz nafar mullavachchalar ta'lim oladigan Arabmuhammadxon madrasasiga mudarris etib tayinlanadi.

Doiy o'zining to'g'riso'zligi, haqiqatparvarligi bilan ajralib turgan. U hatto, Feruzning xon bo'lismiga qaramay, uning ba'zi g'azallaridagi nuqsonlarni tap tortmay tanqid qilar, she'riyat qoidalari bo'yicha unga ta'lim berardi. Doiyning fe'lini yaxshi bilganligi uchun Feruz o'rtadagi mansab tafovutlariga e'tibor bermaslikka intilardi va uni ustodi sifatida chuqur hurmat qilar edi. Doiydan so'ng shoir she'riyatining an'analarini Bayoniy, Mutrib, Faqiri, Chokar kabi taraqqiyatparvarlar davom ettirdilar.

Feruz milliy madaniyat ravnaqi uchun harakat qilarkan, mulozimlari bilan Karvonsaroy atrofidagi hunarmandlarning ishini oyda ikki marotaba kuzatib borgan. Hunarmandlar tomonidan Ogahiy, Mirzo, Bayoniy, Feruz kabi shoirlarning she'rlari ustunlarga va marmar toshlarga shu qadar mahorat bilan o'yib yozilganki, bu obidalar hali-hamon barchani hayratga soladi.

Feruz xonlik viloyatlariga safar chog'ida xalqning ahvolini, amaldorlarning xalqqa munosabatini o'rgangan, yomonlarni jazolagan, namunalni faoliyat yuritayotganlarni ibrat qilib ko'rsatgan.

1880-yilga kelib xonlikda Feruzning tashabbusi bilan birinchi ambulatoriya punkti ochilgan. Feruz mahalliy fuqarolarning farzandlaridan ilmli kishilarni tayyorlash maqsadida o'z saroyida



maktab ham ochadi va tolibi ilmlarni xon hisobidan o'qishiga imkon yaratadi.

Feruz xonlik ravaqa yo'lida tinmay izlandi, toshbosma tashkil etish uchun Erondan Ibrohim Sulton ismli matbaachini ishga chorladi, mahalliy yoshlardan Otajon Abdalov unga shogirdlikka tushdi. Saroyda tashkil etilgan "Podshohi zamон tipolitografiyasi"ning ilk mahsuloti-Abu Nasr Forobiyning "Nisobus-sibiyon" nomli falsafaga oid asari 1876-yilda dunyo yuzini ko'rди.

Qisqa vaqt ichida xattotlar kitoblar ustida oylab va yillab bajaradigan mashaqqatli ishlariga chek qo'yildi. Xullas, Muhammad Rahimxon soniy - Feruz xonlikda madaniy - ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga bosh-qosh bo'ldi.

Shoir va musiqashunos, tarjimon va xattot, Xorazm adabiyoti va san'atining bilimdoni Said Muhammad Rahimxon soniy-Feruz yaratgan asarlar bugun mashshoqlar tomonidan qo'shiq qilib kuylanmoqda. U tomonidan Bunyod ettirilgan madrasa va maqbaralar sayyoohlarning sevimli qadamjosiga aylangan.

Mohir siyosatdon, adib, musiqashunos va hukmdor Feruzning adabiy merosi bugungi yosh avlod uchun ham o'rnak bo'lishga loyiqdir. Yosh avlod tarbiyasida bu kabi tarixiy voqe'liliklardan misollar keltirish, ajdodlar qismati va kechmishlaridan boxabar qilish o'quvchilarni hayotdan saboq olishga, o'z ajdodlariga munosib avlod bo'lishga undaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz Toshkent, 2011.
3. Laffasiy. Tazkirai shuaro, Urganch, 1992.
4. M.Y. Bayoni. Shajarayi Xorazmshohiy. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1994.



DALVARZINTEPA YODGORLIKHLARI – KUSHON IMPERIYASINING BIRINCHI POYTAXTI

*Habibullayeva Mayjuda Mamarajabovna
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani
14-sonli umumiy o'rta ta'lim
makabining tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Sho'rchi shahridan 10 km masofada joylashgan, Termiz – Denov avtomobil yo'lining kunchiqar tomonida Dalvarzintepa borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Dalvarzintepa, tarixiy obidalar, qadriyat va urf-odat

Dalvarzintepa – Sho'rchi shahridan 10 km masofada joylashgan, Termiz – Denov avtomobil yo'lining kunchiqar tomonidagi juda katta tepalik. Ming yillar davomida yog'gan qor-yomg'ir suvlari tepalik ustidagi tuproqni yuvishi, kuchli shamol va bo'ronlar oqibatida yer yuzasiga chiqib qolgan ba'zi buyum ashyolar, dag'al sopol xum,to'q qizil rangli nozik kosa, jom parchalari, barvasta odamlar va hayvonlar tasviri tushirilgan zanglagan kumush, mis va bronza tangalar, ayol haykalchalar va qimmatbaho munchoqlar qadimgi tarix qoldiqlaridir.

1967-yilda professor G.A. Puganchekova: "Samarqand yaqinidagi qadimgi Afrosiyob xarobalari qazib tekshirilganda unda 17ta madaniy qatlama borligi aniqlangan. Dalvarzintepa – antiqa antik shahar, undagi madaniy qatlama 2 – 3tadan oshmaydi. Bu yirik tapalikning istalgan joyini qazib ko'rsangiz, birdaniga qadimgi yodgorlik namunalariga duch kelasiz. Kushoon sultanati davrida Dalvarzin atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning atrofidagi katta xandaqlar suv bilan to'ldirilgan", – deb yozadi.

Katta Dalvarzin shahrining mudofaa devorlari qalin paxsa va xom g'ishtdan tiklangan. Bu devorning qalinligi 8 – 10 metr bo'lган. Devorning ba'zi joylarida mustahkam istehkomlar, burjlar va askarlar yurishi uchun maxsus yo'laklari bor edi. Dalvarzintepadan mil. avv. I asrga oid tasviriy san'at namunalari topilgan. Noyob sopol parchalarida ot choptirib borayotgan askarlar tasvirlangan. 1972-yilning kuzida misli ko'rilmagan oltin buyumlar xazinasi va dunyyoda eng qadimgi hisoblangan 2ta shaxmat donasi topilgani katta shov-shuv bo'ldi. Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari milodiy II asrga taalluqlidir.

1972-yil 25-sentabrda Dalvarzintepada unutilmas voqeа yuz berdi: bir ko'za tilla taqinchoq va yombilar xazinasi topildi. B. Turg'unov, Eduard Rivaladze, T. Belyayeva, talaba Erkin Jo'rayev va Anatoliy Sa'dullayev tilla buyumlarni birma-bir sanab, yombillardagi yozuvlarni ko'chirib yozib, ikki nusxada dalolatnomaga tuzdilar. Tilla xazina jami 115ta: munchoq shodasi, bo'yinga taqiladigan 2ta pekto kamar to'qasi, bilakuzuk bo'lakchalar, shildiroq shaklidagi taqinchoqlar, sirg'a, kulchasimon oltin buyumlar, to'rtburchak yombi va boshqa ashyolardan iborat edi. Bu xazinaning og'irligi 35 kg 712 gr 13 mg edi.

Garchi Dalvarzintepa xazinasidagi ayrim taqinchoqlar Afg'oniston, Hindiston va Pokistondan topilgan taqinchoqlarga o'xshab ketsa-da, ammo ularning Shimoliy Baqtriya, ya'ni hozirgi O'zbekiston janubida yashagan ustalar tomonidan tayyorlanganligi shubhasizdir. Dalvarzintepa xazinasi ajdodlarimizning qo'shni xalqlar va mamlakatlar bilan qadimdan savdo-sotiq va madaniy aloqada bo'lganligidan darak beradi.

Dalvarzin xazinasi Markaziy bankka topshirildi. O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining bosh kotibi Shrof Rashidov qadimshunoslar bilan uchrashdi. 1973-yil 2-aprelda bu topilmalar bo'yicha matbuot konferensiyasi o'tkazildi.

Shundan so'ng G.A. Puganchenkovning "Dalvarzintepaning badiiy xazinasi" kitobi rus va fransuz tillarida nashr etildi. Murodjon Mahmudovning "Yombi" qissasi chop etildi. Yapon olimi, professor Kyudzo Kato yodgorlikni o'rganishda jonbozlik ko'rsatdi. U 2002-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Hozirda Dalvarzin yaqinidagi 43-maktabga Markaziy Osiyo budda madaniyatini o'rgangan olim – Kyudzo Kato nomi berilgan. Tatyana Belyayeva va Bahodir Turg'unovlar dalvarzintepa sirlarini ochishda salmoqli hissa qo'shganlar. Yillar o'tdi. Dalvarzin shahri yirik Kushon sultanatining birinchi poytaxti ekanligi butun dunyo arxeologlari, tarixchilari tomonidan e'tirof etildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti xodimlarining Dalvarzintepada olib borgan ilmiy tekshirish ishlari tufayli ajdodlarimiz tarixining hozirgacha bizga noma'lum bo'lgan yangi sahifalari ochildi. Buyuk Kushon sultanati madaniyati jahonga



tarqaldi.

Dalvarzintepadan topilgan yana bir topilmani e'tirof etishimiz kerak: 1867-yil bahorida mexanizator N. Murodov Dalvarzintepaning shimolidagi uncha katta bo'lмаган tepalikni surayotgan chog'ida tuproq orasidan odam boshi haykali chiqib qoldi. Bu Budda haykali edi.

“O'zbekiston – buyuk yo'llar va svilizatsiyalar chorrahasi. Imperiyalar, dinlar, madaniyatlar” mavzusida madaniy meros haftaligi doirasida Termiz shahrida “O'zbekiston – svilizatsiyalar chorrahasi” xalqaro arxeologik va sayyohlik forumi bo'lib o'tdi. Forumga o'zbekistonlik va saksondan ortiq xorijiy davlat olimlari, arxeologlari, muzey va institut rahbarlari kelishdi. Fransiya Milliy ilmiy tadqiqotlar markazi professori P. Lerish: “Jahon svilizatsiyasi tarixini o'rganishda Surxondaryodagi tarixiy yodgorliklar muhim o'ringa ega. Jumladan, Teshiktosh g'ori, Zarautsoy yodgorligi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Jarqo'ton, Xolchayon, Qoratepa va Fayoztepa singari obidalar o'z bag'rida ne-ne sinoatlarni saqlab kelmoqda. Turli madaniyat va dinlar hamda buyuk imperiyalar tarixi bu zamin o'tmishi bilan chambarchas bog'liq ekan, uni qiyosiy o'rganish hayotiy zaruriyatdir”, – dedi o'z nutqida.

Xulosa o'rnila. Tamaddun beshigi bo'lgan Surxon zaminidagi yodgorliklar o'zining qadimiyligi bilan mashhur. Viloyatimizdagи 359ta tarixiy yodgorliklarning 234tasi arxeologik yodgorliklar sirasiga kiradi. Yodgorliklarimizni o'rgangan inson qalbida jonajon Vatanimizga, bunyodkor, tanti va saxovatli xalqimizga bo'lgan mehri yanada ortadi, shu yurt farzandi ekanidan qalbi cheksiz faxr va iftixorga to'ladi, O'zbekistonimizning tarixi va o'tmishi naqadar buyuk ekanligini yana bir bor anglaydi. Zero, tarix xalqqa ma'rifat beradi.

Foydalanimagan adabiyotlar:

1. G.A. Pugachhenkova va boshqalar. Dalvarzintepa – O'zbekiston janubidagi Kushonlar shahri. 1978;
2. Turob Eshboyev. Sho'rchi shuhrati va inson qudrati. Toshkent – 2007;
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent – 2000;
4. “Xalq so'zi” gazetasi. 2019;
5. Meros.uz. “Kushon davlatining kelib chiqishi”.



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATINING QISQACHA TARIXI

*Hoshimova Muhabbat Polvonovna
Marg‘ilon shahar 28-umumta’lim maktabi
Tarix fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada O‘rta Osiyo va Yevropa tarixida chuqur iz qoldirgan Amir Temur siyoshi hamda Temuriylar davlati tarixi ilmiy asarlar asosida yoritib berilgani qayd etilgan.

Kalit so‘zlari: Amir Temur,“ Zafarnoma”,“ Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy”,“ Tarixnama”.

Amir Temur hayoti va faoliyatini gavdalantirish Amir Temur hayot davrida zamondoshlari tomonidan va uning homiyligida yoki Sohibqiron vafotidan keyin hali voqealarning ohori to‘kilmay va salaflarning merosini e‘tiborga olgan holda yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida g‘oyat qimmatlidir. Buyuk olim G‘iyosiddin Ali ibn Jamol ai-Islom Yazdiyning“ Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko‘rsatmasi bilan 1399-1403 yillar oralig‘ida yozilgan. Unda 1398-1399 yillardagi yurish batafsil tasvirlangan.

Yana bir asar“ Zafarnoma ” Sharafiddin Ali Yazdiyning qalamiga mansub bo‘lib, ko‘tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar“ Zafarnomai Temuriy”,“ Tarixi jahonkushoyi Temuriy”,“ Fathnomai Sohibqironiy ” nomlari bilan ham atalgan. Sharafiddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor. Masalan, asarning katta muqaddima qismi ham bo‘lib, unda Jo‘ji, Chig‘atoj uluslari hamda Elxoniylar davlatining Amir Temurgacha bo‘lgan tarixi qisqacha bayon etilgan. Muqaddima“ Tarixi Jahongiriy ” va“ Muqaddimai Zafarnoma ” nomlari bilan ma’lum. Sharfiddin Ali Yazdiy bu asarni Fors hokimi, Temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirig‘i bilan yozgan. Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan (1336) to Xalil Sulon hukmronligiga chek qo‘yilishigacha (1409) bo‘lgan davrda Movaraunnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu asardagi barcha kishilarning, joylarning nomlari, voqealarning sanalari haqiqat bo‘lib, barcha xabarlar rost va haqqoniyidir. Tarixchi va elshunos olim Shaxobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al –Havofiy (Hofizi Abro‘) ham Amir Temur tarixnavisligining yana bir namoyandasini bo‘lib maydonga keldi. Hofizi Abro‘ning“ Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy ” (“Boysung‘ur Mirzoning saralangan tarixi”) nomi bilan mashxur va umumiylar tarzida yozilgan asardir.. Asarning to‘rtinchı qismida Amur Temur tarixi qisqa tarzda bayon etiladi. Hofizi Abro‘ asaridagi Amir Temur haqida bayon etilgan ayrim ma’lumotlar tadqiqotchilar e‘tiborini tortadi. Masalan, Hofizi Abro‘ning guvohlik berishicha, Amir Temur din va shariatni mustahkamlash borasida sitqidildan g‘amxo‘rlik qilgan. Amir Temur zamonida Samarcand yaqinidagi Angor tumanida va Murg‘ob daryosi havzasining yuqori qismida ariq va zovurlar qazilganligi haqida ma’lumotlar ham shu asarda bayon etilgan. Amir Temur tarixi Eronlik tarixchi olim Mo‘iniddin Natanziyning sharqshunoslari orasida“ Muntaxab ut –tavorixi Mo‘iniy ” (“Mo‘iniyning saylanma 26 tarixi”) nomi bilan mashxur bo‘lgan asarida ham qisqa tarzda bayon etilgan. Asar 1413 –yili Sherozda Temuriy Iskandar Mirzo saroyida yozilgan.

Asarda eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha (1405 –yil 18 –fevral) bir qator o‘lkalarda yuz bergen muhim tarixiy voqealar qisqacha bayon qilingan. Ko‘p hollarda muallif har bir sulola tarixiga alohida bob bag‘ishlagan. Asarning so‘nggi qismlari Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda Amir Temur yashagan va hukmronlik qilgan davrda yuz bergen tarixiy voqealar bir muncha mufassal bayon qilingan. U ushbu davr tarixini muallif asosan o‘zi to‘plagan materiallar asosida yozgan. Amir Temur zamonasidagi voqealari hodisalar Natanziyiga yaxshi ma’lum bo‘lgan, shuningdaek, u saroy solnomalaridan foydalanish, mashxur tarixiy voqealarning hali hayot bo‘lgan ishtirokchilardan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni so‘rab –sorishtirib bilib olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bazi o‘rinlarda muallif shohidlardan eshitib yozganiga ishora etadi. Asarda Amir Temurning vatanparvar lashkarboshi va tadbirkor davlat arbobi sifatida kamol topib borishi yorqin aks etirilgan.

Bugun O‘zbekistonda sohibqironning millatimiz hamda umuminsoniyat tarixidagi faxrli va salobatli o‘rnini teran idrok etgan yangi avlod dunyoga keldi. Ilmiy – tarixiy tadqiqotchilikda va ta’lim – tarbiya sohasida Amir Temur dahosini zamonaviy tushunish tobora takomillashmoqda. Zero, haqqoniy tarixni bilmasdan turib o‘zlikni anglash mumkin emas.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Temur Tuzuklari. – T.:1991
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – T.: 1991




TARIX DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI.

Rasulova Gulshoda
Buxoro viloyati Vobkent tuman
11-maktab tarix fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarida qo'llash mumkin bo'lган interfaol metodlardan“Venn diagrammasi”,“ Sinkveyn” metodlarining qo'llanilishi afzallik tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: “Venn diagrammasi”, “Sinkveyn”, ta'lim, metod, o'quvchi, sifat.

Bugungi kunda Respublikamizda“ Ta'lim tizimini” ni isloh etishga davlat siyosati darajasida etibor qilinmoqda. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillardanoq ta'limga madaniy ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori sifatida qaralmoqda. Buning isboti sifatida 1992-yil 2-iyulda“ Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilinganligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bugun O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqdi. Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur va kerakli bo'ladigan sifatlari ta'lim berish hisoblanadi. O'quvchilarga sifatlari ta'lim berishda biz pedagoglar interfaol metodlardan foydalanamiz. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lган metod tushuniladi. Shunday metodlardan biri“ Venn diagrammasi”dir. Ikkita bir biri bilan kesishgan doiralar ko'rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g'oyalalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Har bir doiradagi bo'sh joylar tafovutlarni yozish uchun ishlataladi. Doiralar kesishganda paydo bo'lган umumiyligi maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniлади. Bu metodning afzalliklari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, predmetlar, hodisalar va shu kabilarning ham farqi ham o'xshash jihatlarini aniqlashga yordam beradi.



“Sinkveyn” – fransuzcha so'z bo'lib, besh qatorli she'r ma'nosini anglatadi :

Ot (narsa nomini bir so'z bilan ifodalash).

Sifat (uni ikki so'z bilan tasvirlash).

Fe'l (uning harakatini uch so'z bilan ifodalash).

Ibora (uni to'rt so'z bilan ta'riflash).

Sinonim (uning sinonimi topish).

11-sinf O'zbekiston tarixi darsligidagi“ O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi” mavzusini mustahkamlash uchun mavzuga oid tushunchalar bo'yicha“ Sinkveyn” tuziladi.

Masalan:

1. Mustaqillik.
2. Erkinlik, ozodlik.
3. O'zgartiradi, barqarorlashtiradi, rivojlantiradi.
4. Mustaqillik- millatning azaliy orzusi.
5. Istiqlol.

Bu tartibda o'qitish samaradorligi bilan ajralib turadi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi mustaqil fikrlashni, o'z fikrini erkin bayon qilishni, boshqalarning fikrlarini eshitishni va xulosa chiqarishni o'rganadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. 11-sinf O'zbekiston tarixi darsligi
2. Internet ma'lumotlari.



TARIXIY MATERIAL VOSITASIDA O'QITISH

Nazarova Zebo Narziqulovna
Surxondaryo viloyati Uzun tumani
14-maktab tarix fani o'qituvchisi
e-mail:nazarova@inbox.uz

Annotatsiya: maqolada tarix fanini o'qitish masalalari, metodikasi, tarixiy hodisalarga to'g'ri baho berish va faktlarni aniqlash asoslari, tarixiy tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarix, bilim, ko'nikma, malaka, fakt, oddiy, murakkab, xususiy, umumiy, tarixiy tushuncha.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish oлган bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Ta'limdi muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi o'rta ta'lismi va o'rta maxsus ta'lismi tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lismi-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, 5-9 sinflarda tarix o'qitish oldida turgan umumiyyat maqsad bilan ta'lismi-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiyyat vazifalarini amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rni, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lismi-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'lumi, bo'limga mavzular, xatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiyyat darslar sistemasida tutgan o'rni bor, bu darsda o'rta ta'lismi va o'rta maxsus ta'lismi tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiyyat vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi. Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lismi va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Ta'limdandan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatlari ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'liming mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limga boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lismi maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'limdandan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqdalar chuqur anglab oлган bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarix ta'limididan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limga tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o'stiradi. Tarix o'qitishning samarali bo'lismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining bo'lismiga juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lismiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarning chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otish bog'liqidir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilingan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, shunigdek ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud



bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya’ni o’zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Tarix kursining mazmuni o’rta ta’lim va o’rta maxsus ta’lim tizimida uni o’qitish va o’quvchilarning o’rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta’sir ko’rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. M.Lafasov 7-sinf Jahon tarixi darsligi.-T.: Cho‘lpon. 2005
2. M.Lafasov. 9-sinf Jahon tarixi o‘quv qo‘llanmasi.-T.: A.Qodiriy nomidagi merosi.-T.: 1999
3. U.Jo‘rayev. 7-sinf Jahon tarixidan o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.-T.: 2000
4. N. Norqulov, U.Jo‘rayev. 8-sinf O‘zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000
5. J.Raximov. 9-sinf O‘zbekiston tarixi. Toshkent. 2000



TARIX O'QITISH METODIKASININING MAQSADI

*Saidova Nazokat
Surxondayo viloyati
Uzun tumani 14-мактаб
tarix fani o'qituvchisi
e-mail:nazokat@inbox.uz*

Annotatsiya: maqolada tarix o'qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari, fanning tarkibiy qismlari, ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarix o'qitish metodikasi, fanga kiritilishi, tarixi, rivojlanishi

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi respublikamizning bugungi kuninigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining istiqlol yo'li avlod-ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy merosiga suyangan holda tanlab olinadi. Zotan, mustaqillik yo'li O'zbekiston halqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do'stlik, mehmondo'stlik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o'rganishni, ularni asrabavaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o'zini anglashga ko'maklashishi, respublikamiz istiqloli uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarining bu tarixiy an'alar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun hizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish asosida o'quvchilar bu o'lka xududida qadimdan bir necha o'nlab millat va elatlар yonma-yon yashab kelganligi, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda kurash olib borganligi, o'zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do'stligini muqaddas, deb ardoqlaganligi, o'zbek xalqining bu tabarruk an'anasi umuminsoniy qadriyatlarga bebaho hissa bo'lib qo'shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib turgan hozirgi paytda bu an'anening hayotiyligi yana bir bor sinovdan o'tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyyati yillarida xalqimizning moddiy-ma'naviy boyliklari va go'zal an'analari oyoq-osti qilib toptalgan, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkahokimligi, kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilganligini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol fojiasiga, atrof muhit, yer-suv va havoning ifloslanishiga olib kelganligini, odamlarning sog'ligigagina emas, balki irsiyatga ham ta'sir ko'rsatayotganligini o'quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda, jumhuriyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarini avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizgning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixon tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston xalqlari tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Lekin, hozirga qadar bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmasdan kelindi. Maktabda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyuştira olishiga bog'liqdir. O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning qayta nashr qilinishi shu maqsad uchun xizmat qiladi degan umiddamiz. Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan



puxta bilim berish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan kelgusida o'qituvchi bo'lib chiqadigan talabalarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'limtarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Tarix.uz
- 20 Ziyonet.uz
3. Pedagog.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000